

NAVOIY KON METALLURGIYA KOMBINATI

Turaqulova Ozoda Hamza qizi

Navoiy Konchilik va Texnologiyalar Universiteti

3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada konchilik sanoati va uning faoliyati mamlakat istiqboli va xalq xo'jaligidagi o'rni. Yer osti va yer usti boyliklari va foydali qazilmalarini qazib olish qayta ishlash.*

Kalitso'zlar: *Metallurgiya, tog' sanoat konchilik, sof oltin, ishlab chiqarish.*

KIRISH

Hammamizga ma'lumki Konchilik sanoati har bir mamlakatda eng istiqbolli, eng talab yuqori va bemaol ayta olishim mumkunki eng yaxshi daromad keltiradigan kasblardan biri hisoblanadi. Konchilik – bu foydali qazilma konlarini qazib olish, ularni boyitish, xalq xo'jaligini kerakli xom ashyo bilan taminlash, yer osti va yer usti boyliklarini, foydali qazilmalarini qazib olish, qayta ishlash,ozlashtirish, aholi ehtiyojlarini taminlashga yunaltirilgan faoliyat turi hisoblanadi.

Tarixga nazar soladigan bolsak Konchilik faoliyati qadimiy faoliyat turlaridan biri bolib undan qadimda odamlar qurol va qurolga oid resurslarni topishda, o'z kundalik ehtiyojlarini qondirish maqsadida zaruriy hom ashyo mahsulotlarini topishda foydalanishgan. Insoniyat azal azaldan doimiy ravishda qazilma boyliklari xususiyati, tarkibini o'rganish bo'yicha ulardan oqilona foydalanish boyicha tadqiqotlar va ko'pgina izlanishlar olib bormoqda.

Xususan Navoiy Kon Metallurgiya Kombinati yurtimiz iqtisodiyotiga ulkan hissa qoshib kelayotgani faxr ila ayta olaman. NKMK jahonda oltin ishlab chiqarish bo'yicha eng yirik kompaniyalar o'ntaligiga kiradi. Jahon oltin ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasida ikkinchi o'rindadir. (2022-yil hisobida)

Dunyoning eng yirik oltin konlari Shimoliy Amerika, Okeaniya, Afrika va Osiyoda davlatlarida joylashgan.

Birinchi orinda AQSHda joylashgan Nevada Gold Mines dunyoning eng yirik oltin qazib olish koni. Nevada Gold Mines tarkibidagi oltita konlari umumiy hisobda yiliga 3,3 million unsiyadan ortiq oltin qazib olinadi.

Ikkinchi orinda Ozbekiston Respublikasining Davlat Korxonasi NKMK tarkibidagi koni Muruntov koni hisoblanib unda yiliga 3 million unsiyaga yaqinroq oltin ishlab chiqarilgan.

O'zbekistondagi 100foizli oltin qazib olishning 80 foizdan oshiqrog'i Muruntov tog' koni hissasiga to'g'ri keladi.

Uchinchi o'rinda, Indoneziyaning Graysberg koni bo'lib unda yiliga 1 million unsiyadan ortiq oltin ishlab chiqarilgan.

To'rtinchi o'rinda Rossiya Polyusga tegishli Olimpiadada yiliga 1,184,068 unsiya oltin ishlab chiqarilgan. Polyus oltin zahiralari bo'yicha 101 million unsiyadan ortiq oltinga ega hisoblanadi.

Jahonda qazib olinayotgan va ishlab chiqarilayotgan xom ashyo va yoqilgilarining 3/2 qismi AQSH, Kanada, Avstraliya, JAR, Rossiya va Xitoy hisobiga togri keladi. Malumot ornida dunyoda komir qazib olish bo'yicha Polsha, mis rudasi qazib olishda Chili, qalay rudasi olishda Malayziya, neft qazib olish bo'yicha esa Fors korfazi yetakchi o'rinlardagi mamlakatlar qatoriga kiradi. O'zbekiston Respublikasi ham jahonda konchilik sanoati rivojlangan mamlakatlar qatorida mustahkam o'rin olgan.

Oltin, uran, neft, fosforitlar zahiralari bo'yicha O'zbekiston yetakchi o'rinda.

SANOATDAGI YUTUQLAR O'SISH VA RIVOJLANISH

Navoiy Kon Metallurgiya Kombinati 1958-yilda tashkil topgan. Sanoat korxonamizda oltin, kumush, uran, nodir va qimmatbaho metallar, marmar mahsulotlari, fosforitlar muntazam ravishda qazib olinadi. Madanlarni qazib olish, uni qayta ishlash, geologik qidirish va qazib olish, uran oksidlari, sof quyma oltin olish, qidiruv razvedka ishlari, oltin rudalarini qazib olish va qayta ishlash kabi jarayonlar korxonaning asosiy ish faoliyati hisoblanadi. Kombinat o'zining zamonaviy jihozlarga ega zavodlari, minglab konchilik ishlarida qollanadigan kon transport texnikalariga ega eng yirik korxonahisoblanadi. 2022-yil sarhisobida NKMK tomonidan Ozbekiston Respublikasi Davlat Bojiga 18,0 trln som miqdorida soliq hamda majburiy tolovlar to'landi. 15,3 trln som dividendlar to'lanib, mahalliyashtirish doirasida 554,6 mlrd somlik

mahsulot ishlab chiqarildi. Korxonatonomonidan 2022 yilning ozida 56,6 trln somlik mahsulot ishlab chiqarildi. Minglab yangi ish o'rinlari yaratildi. NKMK AJ ning '999,9' lik standartdagi 5,10, 20 va 50 gramm ogirlikda tayyorlangan sof oltin quymalari Jahon oltin birja va bozorlarida juda ham xaridorgir.

NKMK asosan 6 ta asosiy bo'linmasi mavjud bolib ular:

- Uchquduq shahridagi Shimoliy kon boshqarmasi;
- Nurobod shahrining Janubiy kon boshqarmasi;
- Zarafshon shahrining Markaziy kon boshqarmasi;
- Navoiy shahrida joylashgan "GMZ-1" kon boshqarmasi;
- Navoiy mashinasozlik zavodi;
- Navoiy shahri Geologiya Qiduruv Ekspeditsiyasi;

MUHOKAMA VA NATIJALAR:

Konchilik ishlari takomillashishi va rivoji debochasi uzoq ming yilliklarga borib taqaladi. Tarixda asosan 1556-yil olim G.Agrikoli tomonidan "Konchilik ishlari va metallurgiya haqida XII kitob" deb nomlangan lotin tilida yozilgan kitobi orqali fan sifatida organish boshlangan.

M.D.Lomonosovning ilmiy asarlarida mineral hosil bolishi, kon ishlari va rudniklarni shamollatish haqida bir nechta asoslarini yozib qoldirgan(1745-1763 yillar).

XX asrda korgina professor va olimlarning fan rivojiga qoshgan ulkan hissalarini taqsimga loyiq. Xususan : Ozbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi V.R.Rahimov, professor B.R.Raimjonov, professor F. M . Mavlonova va yana boshqa ko'plab olimlar hissasi alohida taqsimga loyiq.

Rus olimlari professor N.V.Melnikov, B.I.Bokiy, akademik A.M.Terpigorov, akademik L.D. Shevyakov, akademik A.A. Skochinskiy, M.N . Agashkov, A.S.Burchakov, V.V.Rejevskiy va yana ko'plab mutaxassis olimlar Konchilik ishi va Metallurgiya haqida ko'plab ilmiy asos va nazariyalarini ochiqlab asoslab berishgan .

Olimlar izlanishi va tajribali orqali bugungi kunda konchilik ishlari faoliyati, kon shaxta qazish jarayonlari, xullas konchilik ish faoliyatiga doir jamiki ishlar butkul takomillashtirilgan. Zamonaviy texnikalar bilan boyitilgan. Va bu albatta ish sifati hamda ishchilar xavfsizligi uchun xizmat qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. V.S. Xoxryakov. Otkritaya razrabotka mestorojdeniy poleznix iskopaemix. M. «Nedra», -1991 g.
2. Spravochnik. Otkritaya razrabotka mestorojdeniy poleznix iskopaemix. M. «Gornoe byuro». 1994.
3. Tomakov. P.I. Naumov. I.K. Texnologiya mexanizatsiya i organizatsiya otkritix gornix rabot. M., MGGI, 1992.
4. Anistratov. Yu.I. Texnologicheskie protsessi otkritix gornix rabot. M., Nedra, 1985.
5. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.
4. Горовик, А. А., &Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.
7. www.ngmk.uz sayti, www.daryo.uz sayti